

HISOBOT | 2025-yil 19-fevral

**O‘ZBEKISTONDA IQLIM O‘ZGARISHIGA QARSHI KURASHISH UCHUN
DAVLAT MABLAG‘LARINI “YASHILLASHTIRISH”**



O‘zbekiston “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralari ni ko‘rmoqda. Ushbu sohadagi rivojlanishlarni davom ettirish uchun hukumat, davlat moliya muassasalari, davlat korxonalari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Jahon bankining “O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat mablag‘larini yashillashtirish” (ingliz tilidagi matn) nomli yangi hisobotida hukumatning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga chidamliligini oshirish va iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qo‘shimcha xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadlariga mos keladigan

loyihalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat mablag‘laridan qanday foydalanish mumkinligi tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha qator majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi. Xususan, atmosferaga issiqxona gazlari chiqarishni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, energiya va suv samaradorligini oshirish bo‘yicha vazifalar va chora-tadbirlar belgilandi. Bu tashabbuslar nafaqat atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o‘zgarishi ta‘siriga moslashish, balki mamlakatning bozor tamoyillariga o‘tish jarayonini jadallashtirish va kelajakdagi iqtisodiy o‘shishning ekologik va iqlimiy jihatdan barqaror modelini shakllantirishga qaratilgan strategik qadamlardir.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda davlat moliya muassasalari va davlat korxonalarining tegishli jarayonlardagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, hozirgi vaqtda davlat moliya muassasalari mamlakatdagi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi barcha kreditlarning qariyb 70 foizini taqdim etadi. Shu bilan birga, hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yilda **O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi** kabi davlat investitsiya fondlari turli sohalardagi loyihalarni amalga oshirishga YaIMning qariyb 10 foizi miqdorida sarmoya kiritgan. Bundan tashqari, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida davlat korxonalarini ustun mavqega ega. Bu institutlar birgalikda “yashil” iqtisodiyot uchun foydalanilmagan investitsiyalar manbaini tashkil etadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) davlat korxonalarining “yashil” salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Ko‘pgina davlat moliya muassasalari va davlat korxonalarining asosiy aksiyadori sifatida, IMV ushbu korxonalardan ekologik va iqlim o‘zgarishlariga chidamli loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “yashil” investitsiyalar bo‘yicha tegishli maqsadlarni belgilab olishni talab qilishi mumkin.

“Yashil” investitsiyalar bo‘yicha potentsial yetakchilar

Jahon banki hisobotida muayyan davlat moliya muassasalari va davlat korxonalarini “yashil” investitsiyalar sohasida yetakchilarga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish tavsiya etiladi. Ular xususiy sektorga o‘rnak bo‘lib, ekologik texnologiyalar va biznesni rivojlantirish modellarini joriy etish masalalarida zarur yordamni ko‘rsatishlari mumkin.

Toza energetikaga, energiya va suv samaradorligini oshiruvchi qishloq xo‘jaligiga, iqlim o‘zgarishlariga chidamli infratuzilmaga, shuningdek, ekologik toza va energiya tejaydigan uy-joylarga kiritilgan investitsiyalar tufayli, bu tashkilotlar O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

“Yashil” moliyalashtirishni targ‘ib qilish sohasida yetakchi bo‘lish salohiyatiga ega bo‘lgan tashkilotlar orasida hisobot bir nechta tashkilotlarni ajratib ko‘rsatadi. Ularga **“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ**, **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB** va **“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” AJ** kiradi.

Xususan, **“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ** quyosh energetikasini rivojlantirish sohasidagi loyihalar va boshqa “yashil” tashabbuslarni amalga oshirishda xususiy sektorga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatishni boshlab yuborgan. 2026-yilga qadar ushbu tashkilot moliyalashtirishlarining 35 foizini ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish rejalashtirilgan.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB barqaror ekologik va iqlim bo‘yicha rivojlanish masalalarini o‘z operatsion faoliyatiga integratsiya qiladi. Bankning mijozlariga o‘z bizneslarini iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashtirish uchun moliyaviy resurslar taqdim etish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi.

“O‘zbekiston ipoteka kreditlarini qayta moliyalash kompaniyasi” AJ “yashil” obligatsiyalarni chiqarmoqda. Ushbu qarz qimmat qog‘ozlarni sotishdan tushgan mablag‘lar energiya tejamkor qurilish materiallaridan foydalangan holda binolarni modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Ayni paytda kimyo sanoati tarmog‘idagi **“O‘zkimyosanoat” AJ**, elektr energiyasi ishlab chiqarish tarmog‘idagi **“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ** kabi davlat korxonalari atmosferaga issiqxona gazlari chiqarishlarini kamaytirish va o‘z operatsion faoliyatiga ekologik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini o‘rganmoqdalar. Ularning bu boradagi sa‘y-harakatlari ijobiy samara berib, xususiy sektordagi korxonalar tomonidan analogik choralar ko‘rilishi uchun namuna bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi va **Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi** ham mamlakatning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynashga qodir. Xususan, To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi turli sohalarda ekologik va iqlimga barqaror loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lgan xorijiy investorlarni jalb qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi taqdim etayotgan mablag‘ni oluvchilariga tegishli ekologik talablar kiritish orqali tarmoqning iqlim o‘zgarishi ta‘siriga chidamliligini oshirishga yordam berishi mumkin.

Aniq siyosiy yetakchilik, strategiyalar va natijalarga erishish uchun maqsadli ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lsa, davlat mablag‘laridan mamlakatning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishini jadallashtirish, shu bilan uning ekologik va iqlimiy jihatdan barqaror rivojlanishiga va ustuvor tarmoqlarga xususiy kapitalni jalb qilishga yo‘l ochish uchun yanada samarali foydalanish mumkin.

Ushbu hisobot Jahon banki tomonidan boshqariladigan [Iqlimni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi](#) moliyaviy ko‘magida tayyorlangan.